



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK TILIDA LEKSIK PRESUPPOZITSIYANING PRAGMATIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA NUTQDAGI IFODALANISHI

Raimov Akbar Rashid o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilida presuppozitsiya hodisasining leksik sathdagi namoyon bo‘lishi hamda uning pragmatik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda presuppozitsiyaning nutq jarayonida yuzaga chiqish omillari, xususan, kontekst, nutq vaziyati va nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari bilan bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, leksik birliklarning ichki semantik imkoniyatlari asosida yashirin ma’no qatlamlarini ifodalash xususiyatlari misollar yordamida asoslab beriladi. Maqolada presuppozitsiyaning sintaktik tuzilma bilan munosabati, uning propozitsiya bilan o‘zaro aloqasi hamda tilning tejash tamoyili asosida shakllanishi masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida o‘zbek tilida leksik birliklar orqali presuppozitsiyani ifodalash imkoniyatlari keng ekani va ularni pragmatik yondashuv asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar. Presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, pragmatika, semantika, nutq jarayoni, kontekst, nutq vaziyati, til ko‘nikmalari, propozitsiya, yashirin ma’no, semik komponent, sintaktik tuzilma, tejash tamoyili, implikatura, leksik birliklar.

ПРАГМАТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ПРЕСУППОЗИЦИИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЁ ВЫРАЖЕНИЕ В РЕЧИ

Раимов Акбар Рашид угли

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируется проявление явления пресуппозиции в узбекском языке на лексическом уровне, а также его прагматико-семантические особенности. В ней освещается связь факторов возникновения пресуппозиции в речевом процессе, в частности, с контекстом, речевой ситуацией и общими знаниями участников речи. Также на примерах обосновываются особенности выражения слоев скрытого значения на основе внутренних семантических возможностей лексических единиц. В статье также рассматриваются взаимосвязь пресуппозиции с синтаксической структурой, её взаимодействие с пропозицией, а также вопросы формирования языка на основе принципа экономии. В результате исследования делается вывод о широких возможностях выражения пресуппозиции через лексические единицы в узбекском языке и важности их изучения на основе прагматического подхода.

Ключевые слова. Пресуппозиция, лексическая пресуппозиция, прагматика, семантика, речевой процесс, контекст, речевая ситуация, языковые навыки, пропозиция, скрытое значение, семический компонент, синтаксическая структура, принцип экономии, импликатура, лексические единицы.

PRAGMATIC-SEMANTIC FEATURES OF LEXICAL PRESUPPOSITION IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS EXPRESSION IN SPEECH

Raimov Akbar Rashid ogli

Jizzakh State Pedagogical University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the lexical manifestation of the phenomenon of presupposition in the Uzbek language and its pragmatic-semantic features. It highlights the factors of the emergence of presupposition in the speech process, in particular, the context, the speech situation and the connection with the general knowledge of the participants of the speech. Also, the features of expressing hidden meaning layers based on the internal semantic capabilities of lexical units are substantiated using examples. The article also examines the relationship between presupposition and syntactic structure, its interaction with the proposition, and the formation of language based on the principle of economy. As a result of the research, it is concluded that the possibilities of expressing presupposition through lexical units in the Uzbek language are wide, and their study based on a pragmatic approach is of great scientific importance.

Keywords. Presupposition, lexical presupposition, pragmatics, semantics, speech process, context, speech situation, language skills, proposition, hidden meaning, semantic component, syntactic structure, principle of economy, implicature, lexical units.

O‘zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillaridan e‘tiboran til birliklarining pragmatik jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, gap sintaksisiga oid tadqiqotlarda presuppozitsiya hodisasi markaziy masalalardan biriga aylandi. Bu yo‘nalishda D. Lutfullayeva, U. Rahimov, H. Mahmudov kabi olimlar o‘z ilmiy ishlari va maqolalarida presuppozitsiyani tilning turli sathlari kesimida tahlil qilib, muhim nazariy xulosalarga kelganlar. Shunga qaramay, presuppozitsiya masalasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda va u hali to‘liq ilmiy yechimga ega bo‘lmagan muammolardan biri sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbek tilida murakkab mazmuni bitta so‘z orqali ifodalovchi presuppozitsion birliklar nihoyatda rang-barangdir. Bunday birliklar yordamida so‘zning faqat yuzaki ma‘nosi emas, balki uning tarkibida yashiringan qo‘shimcha mazmun qatlamlarini ham anglash zarur bo‘ladi. Ana shu yashirin ma‘nolarni ochib berish bilan bevosita presuppozitsiya sohasi shug‘ullanadi. Presuppozitsiya, asosan, til hodisasi sifatida talqin qilinib, unga xos muhim belgilar sifatida bevosita ifodalanmaslik va gap tuzilishidan anglashilish kabi jihatlar e‘tirof etiladi. Demak, leksik sathdagi so‘zlar va boshqa birliklar orqali ifodalanadigan mazmun ham har doim ochiq-oydin namoyon bo‘lavermaydi. Aksincha, bunday ma‘no faqat so‘zning ichki semantik imkoniyatlari chuqur tahlil qilingandagina yuzaga chiqadi. Ushbu yashirin mazmuni aniqlash va izohlash esa presuppozitsiya hodisasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tilda leksik presuppozitsiya so‘z ma‘nosi bilan chambarchas holda yuzaga chiqadi. Shu bois presuppozitsiyani ifodalovchi leksik birliklarni alohida emas, balki gap tarkibida va boshqa birliklar bilan o‘zaro munosabatda tahlil qilish zarur. O‘zbek tilidagi leksik birliklar nutq jarayonida yangi ma‘no qirralarini hosil qilishi bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. Shuning uchun ayrim so‘zlarning semantik mohiyatini kontekstdan va nutq vaziyatidan uzilgan holda to‘liq anglash har doim ham mumkin emas. Bunday birliklarning ma‘nosi ko‘proq pragmatik tahlil orqali ochiladi, shu sababli ularni kontekst va nutq sharoiti bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish samarali hisoblanadi. Ana shu yondashuvdan kelib chiqib, mazkur maqolada presuppozitsion xususiyatni aniqlash talab etiladigan leksik birliklar gap doirasida, kontekst muhitida tahlil qilindi.

Leksik birliklarning ko‘plab semantik qirralari aynan nutq jarayonida to‘liq ochiladi. Nutq davomida so‘zlarning ko‘chma ma‘nolari, qo‘shimcha ma‘no unsurlari hamda baholovchi semalari namoyon bo‘ladi. Hatto ayrim hollarda nutq jarayonida leksik birliklar qo‘shimcha kommunikativ-pragmatik yuklama ham olishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ularning semantik-funksional salohiyati kengayib, ifoda imkoniyatlari yanada boyiydi. Leksik birlikka yuklangan har qanday qo‘shimcha vazifa esa, avvalo, kontekst va nutq sharoiti bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Mazkur holat leksik birliklarni pragmatik jihatdan o‘rganish, ayniqsa, ularning turli presuppozitsiyalarni ifodalash imkoniyatlarini chuqur tahlil etish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ba‘zi leksik birliklar o‘zining semantik xususiyatlariga tayangan holda, shuningdek,

nutq ishtirokchilarining til va nutq birliklari haqidagi umumiy bilimlari hamda til bilish kompetensiyasiga asoslanib, nutq jarayonida presuppozitsiyani ifodalash vazifasini ham bajarishi mumkin. Shunday qilib, ayrim leksik birliklar o'zining semantik tabiati tufayli gap tarkibida presuppozitsiyani bevosita ifodalash imkoniyatiga ega bo'lsa, boshqalariga esa bu vazifa ushbu leksik birliklarning semantik-funksional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nutq jarayonida ularning zimmasiga yuklatiladi. O'zida bevosita presuppozitsiyani namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan birliklar gap tarkibida qo'llanganda, ularning leksik ma'nosi yoki fakultativ ma'nolari, sinonimlik, antonimlik, ko'pma'nolilik xususiyatlari asosida presuppozitsiya yuzaga chiqadi. Masalan, *U sochini quritdi* jumlasidan "Uning sochi ho'l edi" presuppozitsiyasi namoyon bo'ladi. Mazkur presuppozitsiya *quritmoq* leksemasining "ho'l, namlikdan xoli bo'lmoq, quruq holga kelmoq" leksik ma'nosi tarkibidagi *ho'l* semasi orqali anglashiladi. *U ko'ylagini yuvdi* gapidan esa "Uning ko'ylagi kir edi" degan presuppozitsiya oshkor bo'ladi. Ushbu presuppozitsiya ham *yuvmoq* leksemasining "suv bilan ishqab toza qilmoq, kirini ketkazmoq" lug'aviy ma'nosini tashkil qiluvchi *kir* semik komponenti yordamida yuzaga chiqadi. *Eshikni yop* gapida eshikning ochiq ekanligi haqidagi presuppozitsiya yuzaga chiqadi va bu holatda ham presuppozitsiya *yopmoq* leksemasining leksik ma'nosi asosida shakllanadi. Shu bilan birga, bu kabi presuppozitsiyaning namoyon bo'lishi so'zning leksik ma'nosidan tashqari kontekst bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bu kabi bog'liqlik odatda kontekst tarkibidan biror so'zning tushirilishi yoki o'zgartirilishida ko'rinadi.

Bundan tashqari, tilda *hamma, barcha* kabi belgilash olmoshlari shaxs va narsa-predmetga nisbatan qo'llanib, ularning semantikasi orqali ham gapda presuppozitsiyaga yo'l ochiladi. Mazkur olmoshlar asosan shaxs va narsalarni jamlash xususiyatiga ega bo'lganligi sababli gapda biror voqea-hodisa yoki narsaning umumga xosligi, undan tashqarida mavjud emasligi yoki sodir bo'lmasligi kabi mazmuniy xulosalarni anglatadigan presuppozitsiyalarni shakllantiradi. Masalan, "...hamma duoga qo'l ko'tarib, hatto tomdagi tomoshachi xotinlargacha «omin»ga ko'maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir" (A. Qodiriy, *O'tkan kunlar*). Ushbu jumladan "duoga qo'l ochmagan biror odam yo'q edi" presuppozitsiyasi namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqadiki, o'zbek tilida ko'pincha presuppozitsiya leksemaning bevosita lug'aviy ma'nosi hamda uni tashkil etuvchi semik komponentlar orqali gap tarkibida ifodalanishi mumkin.

Nutqda presuppozitsiyani ifodalash uchun xizmat qilmaydigan leksik birliklar ham odatda bu vazifani bajarishi mumkin, ammo buning uchun ayrim muhim jihatlar mavjud. Har qanday leksik birlik avtomatik tarzda presuppozitsiya ifodalay olmaydi. Bu vazifa faqatgina so'zning semantik xususiyatlari va uning gap ichidagi sintaktik muhiti mos kelgan taqdiridagina amalga oshadi. Masalan, "Uning qo'li shirin" gapidan "uning shirin taom tayyorlash qobiliyati bor", "uning qo'li shirin ovqatlar pishira oladi" kabi presuppozitsiyalar anglashiladi. Ushbu gapda mazkur presuppozitsiyani ifodalash asosan *shirin* leksemasining zimmasiga yuklatilgan. Tejash tamoyili asosida gapdan *taom, pishirmoq* kabi leksemalar tushirib qoldirilgan. Gapda *shirin* leksemasi zimmasiga tushirib qoldirilgan ushbu birliklar orqali yuzaga chiquvchi mazmuni tiklash vazifasi yuklatilgan.

Presuppozitsiya, asosan, gap tarkibidagi muayyan til birligining ishorasi orqali yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So'zlovchi obyektiv voqelik haqidagi ayrim ma'lumotni ochiq bayon etishni istamaganida, aynan presuppozitsiya vositasiga murojaat qiladi. Uning nutqda ifodalanishi muayyan nutqiy vaziyatni, shuningdek, nutq ishtirokchilarining yetarli til ko'nikmalarini talab etadi. Aynan shu ko'nikmalar hamda nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlar presuppozitsiyaning to'g'ri va oson anglanishini ta'minlaydi. Presuppozitsiyaning yashirin ifodalanish xususiyati uni gapning tashqi tuzilishida ochiq bayon etiladigan propozitsiyadan farqlab turadi va ular qorishib ketishining oldini oladi. Tagma'no va tagbilim (presuppozitsiya) hodisalarini qiyosan o'rgangan M. Hakimov ham presuppozitsiyani matn semantikasining implikativ birligi sifatida e'tirof etadi [1; 33-b.].

Presuppozitsiya barcha tillarga xos hodisa bo‘lib, har bir tilda u o‘sha tilning ichki imkoniyatlari va ifoda vositalarining o‘ziga xosligi asosida namoyon bo‘ladi. Shu bois, uning ifodalanishiga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi tabiiydir. Shu bilan birga, presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi to‘liq moddiy ko‘rinishda ifodalanmaydi. Biroq unga ishora qiluvchi vositalar, ya‘ni tashqi signallar bevosita sintaktik tuzilma tarkibida namoyon bo‘ladi. Demak, bu holatda presuppozitsiyaning o‘zidan ko‘ra, unga ishora qiluvchi til birligining eksplitsit ifodasi haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur til birligi presuppozitsiyani anglatadi, biroq uning to‘liq sintaktik tuzilishini bevosita aks ettirmaydi.

Yana bir muhim jihat shundaki, presuppozitsiya nutqda turli sintaktik qurilmalar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday qurilmalar odatda propozitsiyani ham ifodalaydi, presuppozitsiya orqali anglashiladigan mazmun esa shu tuzilma doirasida yashirin holda mujassam bo‘ladi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, lingvistik presuppozitsiya, avvalo, til birligining kontekst, nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimlari hamda til ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi. U sintaktik tuzilma tarkibida bevosita emas, balki yashirin tarzda ifodalanadigan ma‘no qatlamini tashkil etadi. Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi orqali ochiq namoyon bo‘lmaydi, biroq uning semantik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, u sintaktik qurilmada muayyan ishora vositalari orqali seziladi. Bu hodisada nutq ishtirokchilari uchun oldindan ma‘lum bo‘lgan voqelik o‘z aksini topadi. Ko‘pincha presuppozitsiya tilning tejash tamoyili asosida yuzaga keladi, ya‘ni gap tarkibida tushirib qoldirilgan unsurlar ma‘nosi boshqa birliklar zimmasiga yuklanib, ifoda ixchamligi ta‘minlanadi. Natijada u propozitsiya bilan birga gapning umumiy semantik tuzilishida ishtirok etib, mazmunni murakkablashtiradi hamda shakl va mazmun o‘rtasida muayyan tafovutni yuzaga keltiradi. Shu bois presuppozitsiya ko‘pincha bevosita ifodalangan propozitsiya bilan semantik jihatdan bog‘liq bo‘lgan, ba‘zan esa unga nisbatan ma‘lum darajada zid keluvchi yashirin axborotni anglatadi.

Har bir til presuppozitsiyani ifodalash uchun o‘ziga xos tashqi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi. U. Rahimov o‘zbek tilida bu ko‘rsatkichlarni uch guruhga ajratadi: leksik, morfologik va sintaktik vositalar. Uning ta‘kidlashicha, leksik vositalar qatoriga omonim, sinonim va antonim birliklar kiradi. Morfologik vositalar esa ayrim so‘z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar, shuningdek, ko‘makchi va yuklamalar orqali namoyon bo‘ladi. Sintaktik vositalar sifatida so‘roq gaplar, o‘xshatish asosidagi konstruksiyalar hamda gapdagi so‘z tartibi muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, olim boshqa bir ishida presuppozitsiyaning til birliklari orqali ifodalanishini kengroq talqin qilib, uni fonema, morfema, leksema, so‘z shakli, so‘z birikmasi va gap darajasidagi ko‘rsatkichlar bilan bog‘laydi [2; 58-b.].

Ayrim gaplarda lingvistik presuppozitsiya bilan bir qatorda ekstralingvistik presuppozitsiya ham bir vaqtda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda tilning o‘ziga xos ishora vositalari orqali yuzaga keladigan lingvistik presuppozitsiyani nutq sharoiti, so‘zlovchi va tinglovchining voqelikka munosabati hamda oldindan mavjud bilimlarga tayanuvchi ekstralingvistik presuppozitsiyadan ajratib ko‘rsatish zarur. U. Rahimov “Ahmadning katta o‘g‘li keldi” jumlasini tahlil qilib, unda leksik antonimiya asosida yuzaga kelgan presuppozitsiya, ya‘ni Ahmadning kichik o‘g‘li ham mavjudligi bilan birga, nutq vaziyati, oldingi axborot va nutq paytiga bog‘liq holda boshqa mantiqiy xulosalar ham kelib chiqishini ta‘kidlaydi. Jumladan, “Ahmadning kichik o‘g‘li kelishi kerak edi”, “Ahmadning kichik o‘g‘li kelmagan” yoki “Ahmadning katta o‘g‘li kelmasligi lozim edi” kabi presuppozitsiyalar aynan ekstralingvistik omillar ta‘sirida shakllanadi [3; 32-b.].

Lingvistik presuppozitsiya ko‘pincha tilda amal qiladigan tejamlilik (iqtisod) tamoyili asosida yuzaga keladi. N. Mahkamovning fikriga ko‘ra, bu tamoyil shundan iboratki, ayrim leksik yoki grammatik ma‘noni ifodalovchi birlikning vazifasi boshqa bir birlik zimmasiga yuklanadi. Shu sababli bevosita shu vazifani bajarmayotgan unsurlar so‘z, birikma yoki gap tarkibidan tushirib qoldiriladi. Natijada ifoda yanada ixcham, qisqa va shaklan tejamkor ko‘rinishga ega bo‘ladi [4; 25-b.].

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya o‘zbek tilida muhim pragmatik-semantik hodisa sifatida namoyon bo‘lib, u nutq jarayonida yashirin ma’no qatlamini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, leksik birliklar orqali yuzaga chiqadigan presuppozitsiya so‘zlarning ichki semantik imkoniyatlari, kontekst va nutq vaziyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, presuppozitsiya ko‘pincha leksemaning lug‘aviy ma’nosi va uning tarkibidagi semik komponentlar asosida shakllanadi. Shu bilan birga, u tilning tejash tamoyili bilan chambarchas aloqador bo‘lib, nutqda ortiqcha unsurlarni tushirib qoldirish evaziga yashirin ma’no ifodasini ta’minlaydi. Bunday holatda presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi ochiq ko‘rinmasa-da, uning semantik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, presuppozitsiyaning yuzaga chiqishi faqat til birligining o‘ziga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari, til ko‘nikmalari hamda kommunikativ vaziyat bilan ham belgilanadi. Bu esa mazkur hodisani pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish zarurligini yanada kuchaytiradi. Umuman olganda, leksik presuppozitsiya o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqni ixcham va mazmunan boy qiluvchi muhim vosita bo‘lib, uning chuqur o‘rganilishi tilshunoslikda yangi ilmiy xulosalar chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ҳақимов М. Тагмаъно ва тағбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2001. — № 1. — Б. 33.
2. Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция // Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: илмий мақолалар тўплами. — Тошкент, 2004. — Б. 58.
3. Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2005. — № 5. — Б. 32.
4. Маҳкамов Н. Лисоний ортиқчалик ва тежамлилиқ натижасида вужудга келган десемантизация // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2002. — № 2. — Б. 25.